IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 02 May 2026

“XORAZM TO‘QIMACHILIK AN’ANALARI: XORIJIY TADQIQOTLAR KONTEKSTIDA (ETNOMADANIY TAHLIL)”

Xudaybergenov Hayitboy Satimovich
Urganch davlat tibbiyot instituti, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti (PhD)
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20094827

Annatotsiya: Mazkur maqolada Xorazm vohasi hunarmandchiligi, xususan to‘qimachilik an’analari xalqaro ilmiy tadqiqotlar kontekstida tahlil etilgan. Xunarmandchilikning ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy ahamiyati, uning jamiyat strukturasidagi o‘rni hamda avlodlar o‘rtasidagi meros sifatidagi roli yoritilgan. Shuningdek, Edward Allworth, Thomas Barfield, Susan Miller va Anna L. Tisdale kabi xorijiy tadqiqotchilarning asarlari asosida Xorazm to‘qimachiligining madaniy identichlik, gender munosabatlar va an’anaviy bilimlar bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda zamonaviy sharoitda hunarmandchilikni saqlash va rivojlantirish masalalariga ham e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Xorazm, to‘qimachilik, hunarmandchilik, etnomadaniyat, identichlik, an’ana, Markaziy Osiyo.

Аннотация: В данной статье анализируются ремесленные традиции Хорезмского региона, в частности ткачество, в контексте международных научных исследований. Рассматривается социально-экономическое и этнокультурное значение ремесел, их роль в общественной структуре и как формы межпоколенческого наследия. На основе работ зарубежных исследователей, таких как Edward Allworth, Thomas Barfield, Susan Miller и Anna L. Tisdale, раскрываются аспекты культурной идентичности, гендерных отношений и традиционных знаний в хорезмском ткачестве. Также уделяется внимание вопросам сохранения и развития ремесел в современных условиях.

Ключевые слова: Хорезм, ткачество, ремесла, этнокультура, идентичность, традиции, Центральная Азия.

Abstract: This article analyzes the handicraft traditions of the Khorezm region, particularly textile production, within the context of international academic research. It highlights the socio-economic and ethnocultural significance of handicrafts, their role in social structure, and their function as intergenerational heritage. Based on the works of foreign scholars such as Edward Allworth, Thomas Barfield, Susan Miller, and Anna L. Tisdale, the study examines aspects of cultural identity, gender relations, and traditional knowledge in Khorezm textile practices. The paper also addresses issues of preservation and development of handicrafts in modern conditions.

Keywords: Khorezm, textile, handicrafts, ethnoculture, identity, tradition, Central Asia.

KIRISH: Hunarmandchilik insoniyat tarixining eng qadimgi va barqaror iqtisodiy-madaniy faoliyatlaridan biri bo‘lib, uning rivojlanishi nafaqat ishlab chiqarish jarayoni bilan, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, madaniy merosni saqlash va avlodlar orasidagi uzviylik jarayonlari bilan ham uzviy bog‘liqdir. Xorazm vohasida hunarmandchilik, ayniqsa to‘qimachilik an’analari, nafaqat mahalliy aholi hayotida, balki mintaqa etnokultur jamiyatining shakllanishida ham muhim o‘rin tutadi.

Mustaqillikdan keyingi davrda O‘zbekistonda milliy qadriyatlar va an’anaviy hunarmandchilikni tiklashga alohida e’tibor qaratildi. Davlat dasturlari orqali mahallalardagi hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash, madaniy merosni saqlash va yoshlar hamda kam ta’minlangan oilalarning bandligini ta’minlash masalalari amalga oshirilmoqda. Xorazmdagi to‘qimachilik an’analari ham aynan shu jarayonda yangi ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etdi.

Xorijiy tadqiqotlarda, jumladan Edward Allworth, Thomas Barfield, Susan Miller va Anna L. Tisdale kabi olimlar Xorazm hunarmandchiligi va uning an’anaviy bilimlari, turli ijtimoiy va etnik jarayonlar bilan bog‘liqligini tahlil qilganlar. Ular fikriga ko‘ra, to‘qimachilik nafaqat estetik va amaliy ahamiyatga ega, balki mahalliy identichlik va gender rollarini anglashda ham muhim ma’lumotlar taqdim etadi. Shu bilan birga, Xorazm hunarmandchiligi haqidagi umumiy Markaziy Osiyo tadqiqotlaridagi ma’lumotlar alohida tahlil va interpretatsiya talab qiladi.

Shu bois, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – Xorazm to‘qimachilik an’analarini xalqaro tadqiqotlar kontekstida tahlil qilish, ularning etnomadaniy ahamiyatini ochib berish va milliy madaniy merosni ilmiy yondashuvda qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir.

Xususan, so‘nggi yillarda madaniy merosni chuqur o‘rganish, saqlash va jahonga tanitishda «O‘zbekiston xalqlarining boy madaniy merosi va tarixiy an’analarini to‘liq saqlab qolish, ko‘paytirish, milliy hunarmandchilikning to‘qimachilik-gilamdo‘zlik san’atini yanada rivojlantirish, hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fuqarolarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maqsadli va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida yoshlar, ayollar va kam ta’minlangan oilalar bandligini ta’minlash»[1] kabi qator vazifalar belgilab berilmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston “Hunarmand” uyushmasi tomonidan hunarmandchilikning to‘qimachilik turi bo‘yicha xalqaro festivallar va ko‘rgazmalar Xorazm hunarmandlarining faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Xorazm hunarmandchiligida to‘qimachilikning (gilamdo‘zlik, mato to‘qish) turi xorijiy tadqiqotlardagi tahlili shuni ko‘rsatadi-ki, etnografik va madaniy tadqiqotlarda Xorazmga daxldor materiallar uchratishimiz va ko‘rishmiz mumkin. Jumladan, Edward Allworth o‘zining – “The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present” asarida o‘zbek xalqining madaniy va etnik o‘zgarishlari haqida batafsil yozgan. Uning asarida Xorazm hududidagi hunarmandchilik an’analari XX asrda sovet modernizatsiyasi ta’sirida qanday shakllangani, айниқса to‘qimachilik, zargarlik va ko‘zachilik sohalarida an’analar qanday yo‘qotilgani yoki saqlangani haqida ma’lumotlar bor.[2] Muallif hunarmandchilikni milliy madaniyatning ajralmas qismi deb baholaydi. Shuningdek, Thomas Barfieldning “The Central Asian Cultures and Crafts” – hunarmandchilik bo‘limida Markaziy Osiyodagi jamoalar ijtimoiy tuzilishi va kasblar tahlili keltirilgan.[3] Shuningdek, Barfield Xorazm va boshqa oazis madaniyatlarida hunarmandchilikni aholining ijtimoiy tuzilishi bilan bog‘laydi. Uning fikricha, shahar va qishloq aholisi o‘rtasida hunar tanlashda irsiylik va etnik omillar muhim rol o‘ynagan. Masalan, husntaroshlik va zardo‘zlik ayrim oilalarning ixtisosi sifatida uzoq yillar saqlangan. Ayniqsa, Susan Millerning “Textiles and Identity in Central Asia” – tadqiqotlarida to‘qimachilik va mato naqshlari orqali xalqning etnik, madaniy va jinsiy (gender) asosida ko‘rsatadi. U Xorazm ipak matolarining dizayn va simvolikasini tahlil qilar ekan, ayniqsa XX asr boshida qo‘l mehnati bilan to‘qilgan matolarning milliylik va an’anaviylik timsoli sifatida qadrlanganini ta’kidlaydi.[4] Tadqiqotchilar Jonathan Bloom & Sheila Blairlarning “Islamic Arts” hammualifdagi kitobida – islom dunyosidagi hunarmandchilik va san’at turlari sifatida to‘qimachilikning mato to‘qish sohasi ko‘rib chiqiladi.[5]

Bundan tashqari, xorijlik tadqiqotlar orasida Xorazm vohasi hunarmandchilik tarmoqlari rivojiga bag‘ishlangan asarlarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Xususan, Anna L. Tisdeyl (Anna L. Tisdale) – “Artisans of Central Asia” nomli tadqiqotida Markaziy Osiyo hunarmandlarining ijtimoiy mavqei, turmush tarzi va ularning an’anaviy bilimlari ta’riflangan. Muallif Xorazmning ham o‘ziga xos uslublari – ayniqsa, to‘qimachilikni alohida ta’riflaydi. Uning fikricha, Xorazm

hunarmandlari turkiy va forsiy an'analarning uzviy qo'shilishida shakllangan noyob maktab va uslubga egaligi ta'kidlagan. Shuningdek, tadqiqotchilar tomonidan Xorazmdagi an'anaviy hunar turlari ham tahlil etiladi. Syuzen Miller (Susan Miller) – "Textiles and Identity in Central Asia" nomli tadqiqotda Markaziy Osiyo to'qimachiligi orqali etnik va madaniy jarayonlar tahlil qilingan. Ular orasida Xorazmda to'qiladigan ipak matolar, an'anaviy ranglar, naqshlar va ularning ma'naviy ifodalari to'g'risida fikrlarlarni ko'rishimiz mumkin. Miller o'z tadqiqotlarida Xorazm ipak matochiligini mintaqaviy boylik deb baholaydi. Matochilik va to'qimachilik sohasidagi tadqiqotlar olib borgan S. Miller, o'zining "Textiles and Identity in Central Asia" nomli asarida milliylik va shaxsiylik, ayniqsa ayollar tomonidan ishlab chiqariladigan qo'l mehnat mahsulotlari orqali qanday ifoda etilishi yoritilgan. U Xorazm ipak matolarining dekorativ naqshlarini o'rganib, ularni madaniy identifikatsiya vositasi sifatida baholaydi [Miller, 2007]. Shu o'rinda, aytib o'tishimiz joiz-ki, bu kabi ma'lumotlar bizning tadqiqotni qimmatli ma'lumotlar bilan boyitishda yaqindan xizmat qiladi.

Yuqoridagi manbalarga tayanib shuni aytshimiz mumkin-ki, Markaziy Osiyo xalqlarining hunarmandchilik an'analari bo'yicha xorijiy tadqiqotlar asosan mintaqaviy, umumlashma xarakterda bo'lib, alohida Xorazm hunarmandchiligi tarixini to'liq yoritgan ishlar nisbatan kam uchraydi. Ammo yetakchi etnograf va madaniyatshunos olimlarning umumiy Markaziy Osiyo madaniyati haqidagi ishlarida Xorazm hunarmandchiligiga daxldor ma'lumotlar alohida tahlil talab qiladi. Jumladan, E. Alvort (Edward Allworth) o'zining "The Modern Uzbeks" nomli fundamental tadqiqotida o'zbek xalqining madaniy va etnik o'zgarishlarini tarixiy jarayon kontekstida tahlil qilar ekan, Xorazm hunarmandchiligining XX asr davomida qanday shakllangani, ayniqsa sovet modernizatsiyasi sharoitida qanday transformatsiyaga uchraganini ko'rsatib o'tadi. U hunarmandchilikni milliy madaniyatning ifodasi sifatida baholab, uning tarkibidagi to'qimachilik, zargarlik, kulolchilik kabi an'anaviy turlari qanday rivojlanganini alohida ta'kidlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2017 yil 17 noyabrdagi PF- 5242-sonli "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Xalq so'zi. 2017 yil, 9 fevral.
2. Allworth, E. (1990). The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present. Hoover Institution Press.
3. Barfield, T. (1993). The Nomadic Alternative. Prentice Hall.
4. Miller, S. (2007). Textiles and Identity in Central Asia. Routledge.
5. Bloom, J. & Blair, S. (1997). Islamic Arts. Phaidon Press.
6. Doniyorov, A., Karimov, N., Bakhtiyarov, S., Abidova, Z., Morkhova, I., Kaldibekova, A., ... & Muminov, A. (2024). A Distinctive Architectural Technique in the Construction of Religious Structures in Central Asia. *Archives for Technical Sciences*, *2*(31), 351-8.
7. Abidova, Z. (2018). Pilgrimage sites and shrines of Khorezm oasis (historical and ethnological research): A dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in History.